



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

2024 yil "19" aprel

90/09-2-qr - sonli

Toshkent sh.

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini kamaytirish, yangi tahrirdagi Ustavi va ichki me‘yoriy hujjatini tasdiqlash to‘g‘risida

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ – 5083-son, 2023-yil 18-martdagi PQ – 168-son hamda 2023-yil 29-dekabrda PQ – 422-son qarorlari, “Ernst&Young” MChJ XK auditorlik tashkilotining 2023-yil 15-iyundagi xulosasi, “KPMG Valuation and Consulting” MChJning 2023-yil 29-noyabrda xulosasi, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 29-avgustda, 2023-yil 27-dekabrda va 2024-yil 22-yanvarda qarorlari hamda jamiyatning 2024-yil 9-apreldagi 01-14-192-son murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ – 5083-son qaroriga asosan:

davlat dasturlari doirasida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi buyurtmasiga muvofiq amalga oshiriladigan geologiya-qidiruv ishlariga shartnomalar asosida **vazirlik tomonidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar** geologiya sohasi tashkilotlari **ustav fondiga kapitalizatsiya qilinmaslik** belgilanganligi;

“Samarqandgeologiya” AJ, “Surxongeoologiya” AJ, “Toshkentgeologiya” AJ, “Qizilqumgeologiya” AJ, “Markaziy laboratoriya” DUK, “Geoburtextnika” DUK va “Hisorgeologiya” AJlarni qo‘shib yuborish orqali ular negizida “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tashkil etilganligi;

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida yuritilishini ta‘minlash va xalqaro kredit reytingini olish belgilanganligi;

b) **katta to'rtlikdagi** "KPMG Valuation and Consulting" MChJning 2023-yil 29-noyabrda jamiyat kuzatuv kengashiga taqdim etgan murojaatida:

"Qizilqumgeologiya" AJ, "Samarqandgeologiya" AJ, "Surxongeologiya" AJ, "Hisorgeologiya" AJ, "Toshkentgeologiya" AJlarini bitta tashkilot "O'zbek geologiya qidiruv" AJ qilib birlashtirish davrigacha, mazkur jamiyatlar 2020-yilda qayta tashkil etish davrida qayta baholanganligini;

asosiy vositalarni qayta baholangan va balans narxi o'rtasidagi farq "gudvill" deb tan olinganligi hamda majburiyat sifatida ustav kapitalini oshirishga olib borilganligi;

aksiyadorlik jamiyatlari yagona jamiyatga qo'shilgandan so'ng jamiyat balansidagi "gudvill"ning umumiy miqdori 2022-yil 1-yanvardagi balans qiymati **484 707 904 000 so'mni** tashkil etganligi;

jamiyat tomonidan "gudvill" deb tan olingan aktiv moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda – MHXS) bo'yicha aslida ichki resurslardan tashkil topgan bo'lib, biznesni sotib olish/birlashtirish natijasida paydo bo'ladigan **"gudvill" emasligi**;

MHXS 38-standarti, nomoddiy aktivlarining 48-49-bandlariga muvofiq, korxona tomonidan ichki shaklda yaratilgan **"gudvill" aktiv sifatida tan olinmasligi**, chunki u identifikatsiya qilinadigan resurs emasligi (ya'ni, uni ajratib bo'lmaydi va shartnoma yoki boshqa qonuniy huquqlardan kelib chiqmaydi), korxona tomonidan nazorat qilinadigan va birlamchi tannarx bo'yicha ishonchli tarzda o'lchanishi mumkinligi bildirilganligi;

d) "KPMG Valuation and Consulting" MChJ metodologlar jamoasi tomonidan "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ustav fondini **395 387 987 000 so'mga kamaytirish** masalasini ko'rib chiqish bo'yicha **tavsiya berilganligi**;

e) **katta to'rtlikdagi** "Ernst&Young" MChJ XK auditorlik tashkiloti tomonidan jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha berilgan xulosasi;

f) jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 29-avgustdagi 3-son bayoni bilan jamiyatning ustav fondi miqdori jamiyatning davlatga joylashtirilgan 3 953 879 870 dona aksiyalarini bekor qilish yo'li bilan **395 387 987 000 so'mga kamaytirish masalasi ma'qullanib**, jamiyat yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun tavsiya etilganligi;

g) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ – 168-son qarorida:

xalqaro nufuzga ega auditorlik kompaniyalarining O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sho'ba korxonalarining **baholash hisobotlari haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazish talab etilmasligi**;

"O'zbek geologiya qidiruv" AJ Hisor geologiya filiali balansidagi Shahrisabz shahri, "Bo'ston" MFY, Ipak yo'li ko'chasida joylashgan **Bo'sh turgan sport zali va mini futbol maydoni** hamda **Oshxona binosi**, Shahrisabz shahri, "Do'stlik" MFY hududida joylashgan **Bo'sh turgan sog'lomlashtirish kompleksi binosi** (keyingi o'rinlarda – obyektlar) ommaviy savdolar orqali sotilishi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari ularni balansda saqlovchi tashkilotlar tomonidan **Davaktiv agentligiga topshirilishi**, bunda davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalidagi davlat hamda xo'jalik jamiyatlari ulushi ular tomonidan Davaktiv agentligiga topshirilgan aktivlarning **sotilgan qiymatiga kamaytirilishi**, sotilgan qiymat qoldiq (balans) qiymatidan yuqori bo'lgan taqdirda, davlat va xo'jalik jamiyati ulushlari **qoldiq (balans) qiymati miqdoriga kamaytirilishi** (2-ilova izoh qismi) belgilanganligi;

h) jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 29-avgustdagi 3-son bayonida:

jamiyatning Hisor geologiya filiali balansidagi obyektlarni Davaktiv agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga o'tkazish;

jamiyat **ustav fondini** davlat tasarrufiga o'tkazilgan obyektlarning balans qiymatiga **kamaytirish bo'yicha qaror qabul qilinganligi**;

i) Davaktiv agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 6-yanvardagi 01/02-1-19-son xatida obyektlar jami **2 037,3 mln. so'mga sotilgani** bildirilganligi;

j) jamiyatning 2024-yil 25-yanvardagi 01-14-88-son xatida obyektlarning balans qiymati **137 609 640 so'm** etib ko'rsatilganligi;

k) jamiyat ustav kapitali **709 180 869 200 so'mni** tashkil etishi hamda nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 7 091 808 692 dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iboratligi;

l) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 422-son qarorining 12-bandida:

respublika mulkida bo'lgan ustav fondida (ustav kapitalida) **davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklarining** (mahalliy hokimiyat organlari muassisligidagi jamiyatlardan tashqari) **ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash** hamda **jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash**, shuningdek **ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarni kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng**, aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish tartibini joriy etish;

ushbu tartibni **bir oy muddatda** respublika mulkida bo'lgan ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklarining (mahalliy hokimiyat organlari muassisligidagi jamiyatlardan tashqari) ustaviga kiritish choralari ko'rish belgilanganligi;

jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 22-yanvardagi bayoni bilan jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi hamda "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ma'qullanib, jamiyat yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun tavsiya etilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin**.

2. Jamiyatning ustav fondi **3 955 255 967 dona** egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarni bekor qilish yo‘li bilan **395 525 596 700** (*uch yuz to‘qson besh milliard besh yuz yigirma besh million besh yuz to‘qson olti ming yetti yuz*) **so‘mga kamaytirilsin.**

3. Jamiyatning ustav fondi **313 655 272 500** (*uch yuz o‘n uch milliard olti yuz ellik besh million ikki yuz yetmish ikki ming besh yuz*) **so‘m** etib tasdiqlansin va nominal qiymati **100 so‘m** bo‘lgan **3 136 552 725** (*uch milliard bir yuz o‘ttiz olti million besh yuz ellik ikki ming yetti yuz yigirma besh*) **dona** egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat etib belgilansin.

4. Jamiyat tomonidan keyingi ustav fondi ko‘paytirilganda yoki kamaytirilganda 60 so‘m davlat aktivi sifatida hisobga olinishi ta‘minlansin.

5. Jamiyatning:

yangi tahrirdagi Ustavi **1-ilovaga** muvofiq;

ustav kapitalini kamaytirilishi munosabati bilan avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar (2023-yil 16-iyundagi P0456-12-sonli) chiqarilishiga o‘zgartirishlar hamda jamiyatning qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar matni **2-ilovaga** muvofiq;

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Jamiyatning qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar matnini imzolash vakolati Davaktiv agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari N. Xusanovga berilsin.

7. Jamiyat Boshqaruv raisi Sh. Alimov belgilangan tartibda:

jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini hamda qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar matnini ro‘yxatdan o‘tkazilishini;

jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran 30 kundan kechiktirmasdan jamiyatning barcha kreditorlarini yozma ravishda xabardor qilinishini ta‘minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik jamiyat Boshqaruv raisi Sh. Alimov zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov